

**XOSIYAT TILLAXONOVA POETIKASIDA OBRAZ VA IFODA
UYG'UNLIGI****Raximjonova Safarmo Akbarali qizi****MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 16.10.2024**Revised: 17.10.2024**Accepted: 18.10.2024***KALIT SO'ZLAR:***Xosiyat Tillaxonova,
poetika, obraz, ifoda,
lirizm, metafora, badiiy
uyg' unlik.*

Ushbu maqolada Xosiyat Tillaxonova she' riyatidagi obraz va ifoda uyg' unligi tahlil qilinadi. Shoiraning poetik tafakkuri, uning lirik qahramonining ruhiy holatlarini badiiy tasvirlash usullari o' rganiladi. Asarda ishlatilgan metafora, ramz, epitet, tazod kabi ifoda vositalarining obraz yaratishdagi o' rni tahliliy yondashuv asosida ko' rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida Xosiyat Tillaxonova poetikasida so' zning hissiy ohangi, badiiy musiqiylik va ruhiy teranlik uyg' un holda namoyon bo' lishi aniqlandi.

KIRISH

O'zbek she'riyati so'nggi yillarda mavzu, shakl va ifoda jihatidan sezilarli darajada yangilanish bosqichiga kirdi. Ayniqsa, ayol shoirlar ijodi bu jarayonda alohida o' rin tutadi. Ayol qalbining nozik kechinmalari, hayotiy tajribalari va ruhiy iztiroblarining badiiy talqini o'zbek adabiyotida yangi estetik tamoyillarni shakllantirmoqda. Shu jihatdan Xosiyat Tillaxonova she' riyati o' zining samimiy lirizmi, ruhiy teranligi hamda badiiy ifoda vositalarining tabiiy uyg' unligi bilan ajralib turadi.

Xosiyat Tillaxonova ijodi jadidchilik davrida shakllangan ma' rifatparvarlik, insonparvarlik va milliy uyg' onish ruhidagi adabiy an' analar bilan uzviy bog' liqdir. Jadid shoirlari singari, u ham so' zga mas' uliyat bilan yondashadi, she' rni nafaqat estetik hodisa, balki ma' naviy uyg' onish vositasi sifatida ko' radi. Shoiraning poetik tafakkurida jadidlar merosiga xos ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni qadrlash va ma' rifatni ulug' lash g' oyalari zamonaviy estetik shaklda davom ettiriladi. Shoira ijodida obrazlilik va ifodaviylik o' zaro chambarchas bog' langan bo' lib, u lirik qahramonning hissiy holatini nafaqat mazmun, balki shakl va ohang orqali ham yetkazadi. Uning poetikasida metafora, ramz, tazod, takror va poetik parallelizm kabi badiiy vositalar orqali his- tuyg' ularning ichki dinamikasi yoritiladi. Xosiyat Tillaxonova poetik tafakkurida so' z nafaqat muloqot vositasi, balki estetik qadriyatni ifoda etuvchi ruhiy energiya sifatida namoyon bo' ladi.

Mazkur maqolada shoiraning poetikasini tahlil qilish jarayonida obraz va ifoda uyg' unligining mohiyati, ularning estetik va semantik funksiyalari, shuningdek, badiiy

ta' sir kuchini belgilovchi omillar ilmiy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Xosiyat Tillaxonova she'riyati orqali jadidchilik an'analari zamonaviy ayol lirikasida qanday estetik yangilanish kasb etgani, his va fikr uyg'unligiga asoslangan poetik tizimning shakllanishi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek adabiyotshunosligida ayol shoirlar ijodi, ayniqsa, ularning poetik tafakkuri va badiiy ifoda uslubi so'nggi yillarda alohida e'tibor bilan o'rganilmoqda. Adabiyotdagi ayol nigohi, his-tuyg'u olami, ruhiy kechinmalarni tasvirlash vositalari zamonaviy poetikaning muhim tadqiq obyektiga aylangan. Shu bilan birga, jadid she'riyati an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan shoirlar ijodini ilmiy tahlil qilish masalasi hali to'liq yoritilmagan.

O. Hamroyeva o'zining "Erk kuychilari" to'plamidagi o'zbek yosh shoirlari she'riyati poetikasi" nomli tadqiqotida Xosiyat Tillaxonova ijodini XX asr boshlaridagi ayol she'riyatining yirik namunalari sirasiga kiritadi. Olimaning fikricha, Tillaxonova o'z davrida o'z ovozi, uslubi va ichki isyon bilan ajralib turgan shoira bo'lib, u o'z asarlarida ayolning ijtimoiy uyg'unishi, erkinlik va ma'rifatga intilish g'oyalarini yuksak badiiylkda ifoda etgan. Shoiraning "Tutqun o'rtog'im", "O'rtog'imning ovozi", "Qutilish", "Kutib turaman" kabi she'rlari orqali u ayol qalbining uyg'unish jarayonini, jaholat va zulm kishanlarini parchalashga bo'lgan ichki ruhiy kurashni ifoda etadi [1.247].

Hamroyeva ta'kidlaganidek, Tillaxonova she'rlarida ma'rifat va erk g'oyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Shoira o'zbek ayolining ozod bo'lishi uchun avvalo ilmga, ma'rifatga erishish zarurligini e'tirof etadi. "Tutqun o'rtog'im" she'ridagi "Sharq qizi, hanuz uyg'un olmading!" misrasi orqali u milliy uyg'unish ruhini lirik obraz darajasiga ko'taradi. Shoiraning bu asarlari shakl jihatidan ham yangilik olib kirgan bo'lib, barmoq va sochma vazn uyg'unligidagi musiqiylik, takroriy naqarotlar orqali ichki ohangni kuchaytirgan. Xosiyat Tillaxonova ijodi o'zbek ayol she'riyatida yangi davrni boshlab bergan bo'lib, Hamroyeva uni Cho'lpon va Oybeklar avlodi bilan ruhiy mushtaraklikda ko'radi. Olimaning tahliliga ko'ra, Tillaxonova lirikasidagi isyon va ma'rifat g'oyasi o'zbek adabiyotida ayol obrazining ijtimoiy-estetik o'lishida muhim bosqich bo'lgan [1.248]. Shuningdek, "O'rtog'imning ovozi" she'rida Xosiyat Tillaxonova ayolning tenglik, insoniy qadr-qimmat uchun kurashini poetik shaklda ifoda etadi. Shoira qiz va o'g'il farzandni teng qo'ygan holda, patriarxal qarashlarga qarshi turadi. Hamroyeva ushbu she'rni o'z davri ayollarining ichki iztiroblarini, ammo shu bilan birga ulardagi irodaviy kuchni yorituvchi madhiya sifatida talqin qiladi.

Hamroyeva qayd etganidek, Tillaxonova ijodida "qushcha", "ufq", "ziyo", "nur" kabi ramzlar ma'rifat va erkni ifodalovchi poetik belgilar sifatida takrorlanadi. Bu obrazlar orqali shoira ozodlikni inson qalbining eng oliy ehtiyoji sifatida ko'rsatadi. Shoiraning "Kutib turaman" she'ridagi "Yolg'iz jaholat kishanlarini o'zim parchalab

zanjirlarini” misrasi uning irodaviy qat’iyatini, o’zlikni anglash jarayonini badiiy darajada mujassamlaydi [1.250].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Xosiyat Tillaxonova she’rlari filologik va badiiy tahlil metodlari asosida o’rganildi. Ishda struktur-semantik, kontekstual va lingvopoetik yondashuvlar orqali shoironing poetik uslubi va g’oyaviy yo’nalishi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xosiyat Tillaxonova ijodi o’zbek ayol shoiralari orasida o’zining ijtimoiy-falsafiy yo’nalishi, samimiy poetik ifodasi hamda badiiy yangiligi bilan ajralib turadi. Shoironing asarlarida ayol ozodligi, mehnat qadri, yangilanish ruhi va ma’naviy uyg’onish g’oyalari yetakchi o’rin tutadi. U o’z ijodi orqali an’anaviy tasvir doirasini kengaytirib, zamonaviy ayol obrazini badiiy-estetik darajada gavdalantirgan.

“G’amxona chechaklariga” she’rining mazmun markazida mehnat va ozodlik mavzusi yotadi. Shoira “tun” va “tong” obrazlari orqali eski tuzumdan yangilik sari o’tish jarayonini ramziy tarzda ifodalaydi:

Tun vahshati ham bitdi,
Tong nuri otib yetdi.

Bu misralarda tazod (tun – tong, vahshat – nur) san’ati yordamida yangilanish va umid g’oyasi ifoda etilgan. “Bitdi” va “yetdi” fe’llarining takrori harakat va uyg’onishga bo’lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. She’r barmoq vaznida yozilgan bo’lib, qisqa misralar tezlik, harakatchanlik va hissiy jonlilikni aks ettiradi.

“O’rtog’im ovozi” she’rida shoironing ayol ozodligi va tenglik masalasiga bo’lgan munosabati aks etadi [3.21] An’anaviy cheklovlar, xususan, paranji obrazida jamiyatdagi ayolga nisbatan adolatsizliklar tanqid qilinadi:

Paranjilarda ko’p qiynaldi jonim,
Ko’rinmasmu otaga teng o’g’il-qiz?

Ritorik savol orqali ayolning ijtimoiy tenglik istagi ifoda etilgan. “Qiynaldi”, “jonim” kabi emotsional so’zlar she’rga samimiylilik bag’ishlab, shoironing ichki kechinmalarini chuqur ochib beradi.

“Uyg’onish” she’rida modernistik ruh ustuvorlik qiladi. Shoira bu asarda insonning yangilanish, o’zini anglash va o’zgarish istagini badiiy vositalar orqali tasvirlaydi. She’rida inson ruhiyatidagi ikki qarama-qarshi holat – yangilanish istagi va o’tmish xotiralarining ta’ siri badiiy tarzda ifodalangan. Lirik qahramon yangi tilak, yangi havas va yangi kuch bilan hayotga intilsa-da, “ eski amal, eski alam, eski o’ch” kabi tuyg’ular uni orqaga tortmoqda. Bu ziddiyat insonning ichki ruhiy kechinmalarini yoritadi. She’rning badiiy

tuzilishida antitezali parallelizm, leksik takror va sintaktik uygʻunlik muhim rol oʻynaydi. “Yangi” va “eski” soʻzlari orasidagi oppozitsiya vaqt, xotira va yangilanish konseptlarini ochadi. Tildagi soddalik va ifodaning ixchamligi orqali shoir chuqur maʼno berishga erishgan. Umuman olganda, asar filologik jihatdan inson qalbining yangilanishga intilishi va oʻtmishdan uzilishdagi ichki kurashini obrazli, semantik hamda psixologik jihatdan yoritib beradi.

Xosiyat Tillaxonova sheʼrlarining badiiy uslubi soddalik va taʼsirchanlik uygʻunligi bilan ajralib turadi. Shoira xalq ogʻzaki ijodi anʼanalaridan samarali foydalangan holda, ularni zamonaviy poetik fikrlash bilan uygʻunlashtiradi. Til sodda, ravon va emotsional boʻlib, soʻzlar tabiiy ohangda joylashgan. Qofiya va ritm mazmun bilan uygʻunlashib, asarlarning ichki musiqasini taʼminlaydi. Ijtimoiy va adabiy ahamiyati Shoiraning asarlari oʻzbek ayolining ijtimoiy faollik, oʻzligini anglash va ozodlik sari intilish jarayonini yoritadi. Uning ijodi XX asr oʻzbek adabiyotining modernistik yoʻnalishlari shakllanishida muhim oʻrin tutadi. Tillaxonova sheʼrlari orqali oʻzbek ayoli shaxs sifatida oʻzining kuchi, irodasi va orzulari bilan yangi hayot sari qadam qoʻyadi.

Xosiyat Tillaxonova ijodi oʻzbek ayol shoiralari orasida ijtimoiy faollik, ozodlik va yangilanish gʻoyalarining badiiy ifodasi jihatidan alohida oʻrin egallaydi. Uning sheʼrlarida inson ruhiyatining teran qatlamlari, ayol qalbining ichki iztiroblari va orzulari poetik shaklda ifodalangan. Shoira asarlarida “tun” va “tong”, “zanjir” va “ozodlik”, “yangi” va “eski” kabi zid maʼnoli soʻzlar orqali hayotiy oʻzgarish, ijtimoiy yangilanish va maʼnaviy uygʻonish jarayonlari badiiy talqin etiladi. Tillaxonovaning poetik dunyoqarashida anʼanaviy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur uygʻunlashgan boʻlib, bu uygʻunlik uning sheʼrlariga oʻziga xos falsafiy chuqurlik bagʻishlaydi. Shoiraning har bir asari orqali oʻquvchi inson, ayniqsa, ayol shaxsining oʻzligini anglash, ozod boʻlish va jamiyatda oʻz oʻrnini topish yoʻlidagi ruhiy kechinmalarini his etadi. Shu bois uning ijodi nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-maʼnaviy ahamiyatga ham egadir.

“Yangi turmush” sheʼri oʻzbek adabiyotining ijtimoiy-maʼnaviy yangilanish davriga xos ruhni ifodalovchi asarlardan biridir. Sheʼrda shoir jamiyat hayotida yuz berayotgan tub oʻzgarishlarni, inson tafakkuridagi uygʻonish jarayonini badiiy obrazlar orqali yoritadi. Asarda “eski turmush” va “yangi turmush” tushunchalari oʻrtasidagi tazod vositasida xalqning oʻtgan asr jaholati, qullik va iztirobdan ozodlik, erk va baxt sari intilishi badiiy ifodasini topgan. Shoir “yangi yoʻldan, yangi izdan boshladik” misrasi orqali xalqning yangicha tafakkur sari yoʻl olganini, yangilanish jarayoni nafaqat tashqi, balki ruhiy-maʼnaviy mazmunga ega ekanligini koʻrsatadi. “Yangi turmush” ramzi erkinlik, bunyodkorlik, mehnat va baxt timsoli sifatida talqin etiladi. Asarda qoʻllangan leksik birliklar va sintaktik qurilmalar ifoda vositalarining sodda, ammo taʼsirchanligidan dalolat beradi. “Yangi”, “erk”, “baxt”, “xizmat” kabi soʻzlar takrori sheʼrning semantik yadrosini tashkil etadi va gʻoyaviy yoʻnalishni mustahkamlaydi. Shoirning uslubi soddaligi, xalqona tili va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, “Yangi

turmush” she’ri o’zbek adabiyotida yangilanish va ozodlik g’oyalari ifodalovchi muhim badiiy manba bo’lib, unda inson va jamiyat hayotidagi ijobiy o’zgarishlar, yangicha dunyoqarash va ruhiy uyg’onish jarayonlari filologik jihatdan yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan.

Shoiraning quyidagi she’ri ham o’ziga xos uslub bilan yozilgan:

Xotin-qizda na hol edi?

Haqliq kiymin endi kiydi.

Yashnab, kulib, yana dedi:

Ayt kuyingni, erk kuychisi!

Biz birlikda to’lg’anarmiz,

Kuying tinglab, erk olamiz.

Sevinch gulin ham taqarmiz,

Ayt kuyingni, erk kuychisi! [5.3]

She’rda lirik qahramon “erk kuychisi” timsolida ozodlik va uyg’onish g’oyalari kuylovchi ijodkor obraziga murojaat qiladi. Bu murojaat orqali u nafaqat musiqaning go’zalligini, balki uning inson qalbini ruhlantiruvchi, ozodlik va ishonch tuyg’usini uyg’otuvchi kuchini yoritadi. Lirik sub’ekt uchun kuy — bu faqat estetik zavq manbai emas, balki ruhiy ozodlik va ijtimoiy uyg’onish ramzidir. She’rning ohangdorligi, takroriy misralar orqali yaratilgan musiqiylik, badiiy ritmni kuchaytirib, asarga o’ziga xos lirizm bag’ishlaydi.

“Ayt kuyingni, erk kuychisi” misrasi naqarot sifatida kelib, poetik takror vositasida ishonch, ruhiy turtki va g’oyaviy qat’iyatni ifodalaydi. Shoir bu takror orqali xalq qalbida erk va birlik tuyg’usini uyg’otishni, insonni ichki quvvat va g’urur bilan to’ldirishni maqsad qiladi. She’rda ishlatilgan “ko’ngil kuychisi”, “sevinch guli”, “nurli kun”, “haqliq kiyimi” kabi istioralar majoziy obrazlar tizimini hosil qilib, asarning semantik qatlamini boyitadi. Ushbu ifodalar orqali ijodkor inson qalbidagi yangilanish, ozodlikdan tug’ilgan sevinch va ruhiy uyg’onish jarayonlarini nozik badiiy ifoda bilan yoritadi. Umuman olganda, she’rda lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, erk va umid kuychisiga bo’lgan ishonchi, musiqaning kuchi orqali ifodalangan ijtimoiy-ma’naviy yangilanish g’oyasi ustuvor o’rin tutadi. Asarda badiiy obraz, musiqiylik va lirizm uyg’unligi o’zaro chambarchas bog’lanib, o’zbek she’riyatining ruhiy yangilanish bosqichini aks ettirgan.

Tahlil natijalariga ko’ra, Xosiyat Tillaxonova she’rlarida ramziylik, tazod, metafora, takror va ritorik savol kabi poetik vositalardan keng foydalanilgan. Ushbu badiiy vositalar shoiraning g’oyaviy niyatini chuqur ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir she’rlarining tili sodda, lekin mazmunan serqatlam bo’lib, xalq og’zaki ijodiga xos samimiyat va tabiiylikni o’zida mujassam etadi. Bu esa uning poetik nutqini o’quvchiga

yaqin, ta'sirchan va jonli qiladi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, shoiraning ijodida ayol shaxsining ozodlik sari intilishi nafaqat shaxsiy kechinma, balki butun jamiyatning yangilanish timsoli sifatida talqin etiladi. Shoira ayol ruhiy olamini tasvirlash orqali o'zbek adabiyotida ayollar she'riyatining yangi bosqichini boshlab bergan. Aynan shuning uchun ham Tillaxonova ijodi o'zbek ayollarining ijtimoiy faolligini, tafakkuridagi o'zgarishlarni, yangicha hayotga ishonchni aks ettiruvchi badiiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Xosiyat Tillaxonova poetikasi o'zining mazmuniy yangiligi, uslubiy soddaligi va ijtimoiy-falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida ifoda vositalari, ritmik qurilish va mazmun uyg'unligi yuqori darajada namoyon bo'lgan. Shoira ijodi orqali XX asr o'zbek ayollar she'riyati yangi bosqichga ko'tarilib, milliy adabiyotimizda ayolning mustaqil fikrlovchi, faol va ozod shaxs sifatidagi badiiy obrazini shakllantirishda katta hissa qo'shilgan.

XULOSA

Xosiyat Tillaxonova ijodining filologik tahlili uning she'riyati mazmunan boy, shaklan mukammal va badiiy jihatdan yetuk ekanini ko'rsatadi. Shoiraning asarlarida milliy qadriyatlar, ayolning jamiyatdagi o'rni, insoniylik va ma'naviy poklik g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. U o'zining obrazli tili, samimiy ifoda uslubi va o'ziga xos poetik tafakkuri bilan zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biriga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xosiyat Tillaxonova poetikasi milliy she'riyatimiz taraqqiyotida o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lgan muhim adabiy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyeva O. "Erk kuychilari" to'plamidagi o'zbek yosh shoiralari she'riyati poetikasi. International Scientific-Methodological Electronic Journal. — T., — 2024. — № 10
 2. Jalolov T. Qizlar qasidasi. 1-kitob. — Toshkent, 1976. — 132 b.
 3. Jalolov T. Qizlar qasidasi. 2-kitob. — Toshkent, 1977. — 114 b.
 4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999. — 544 b.
- G'arib. Erk kuychisi // "Yangi yo'l" jurnali. — T., — 1926. — № 1. — 7